


2021- yil yanvar-mart oylari uchun Samarqand viloyatida qurilish ishlari

2021- yilning yanvar-mart oylarida Samarqand viloyatida jami 1 299,1 mld. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʼsish surʼati 2020- yilning yanvar-mart oyiga nisbatan 114,5 %ni tashkil etdi.




2021- yil yanvar-mart oylarida qurilish ishlari hajmining tarkibi, ulushi %da



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.


Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat boʻlgan korxona va tashkilotlar tarkibi boʻyicha boʻlinadi.



Maʼlumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu – oʼz kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy taʼmirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



2021- yil yanvar-mart oylarida mulkchilik shakllari bo'yicha qurilish ishlari hajmi



Qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

2021- yil 1- aprel holatiga ko'ra qurilish sohasida ro'yxatdan o'tgan jami korxona va tashkilotlar soni 3,3 mingta, faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni esa, 3,2 mingtani tashkil etib, o'tgan 2020- yilning mos davriga nisbatan 333 taga oshdi.

2021 yilning yanvar-mart oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan fuqarolik obyektlarini qurish ishlari hajmi ko'payib 3,9 martani (jami qurilishdagi ulushi 54,1 %ni) tashkil qildi. Bu qurilish sohasida korxona va tashkilotlar sonining ko'payishiga asosiy omil bo'lib xizmat qildi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlaring eng yuqori ulushi kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2020- yilning yanvar-mart oylaridagi jami ko'rsatkichga nisbatan 68,7 %ni tashkil etdi.




Samarqand viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalarini soni (birlikda)

	Holatiga ko'ra:		O'tgan yilga nisbatan farqi, (+/-)
	01.04.2020- yil	01.04.2021- yil	
Samarqand viloyati	2 818	3 151	333
Samarqand sh.	1012	1 087	75
Kattaqo'rg'on sh.	88	106	18
tumanlar:			0
Oqdaryo	114	146	32
Bulung'ur	59	68	9
Jomboy	105	123	18
Ishtixon	139	142	3
Kattaqo'rg'on	111	126	15
Qo'shrabot	65	75	10
Narpay	76	81	5
Payariq	220	270	50
Pastdarg'om	290	312	22
Paxtachi	59	67	8
Samarqand	116	140	24
Nurobod	42	53	11
Urgut	206	221	15
Toyloq	116	134	18



Samarqand viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalarining hududlar kesimida ulushi (%da), 01.04.2021- yil holatiga




Ma'lumot uchun: Viloyatda qurilish korxonalarini soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan hududlar Samarqand shahri (34,5 %), Pastdarg'om (9,8 %) va Payariq (8,6 %) tumanlaridir.

2021- yilning yanvar-mart oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **189,7** mlrd. soʻmni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2020- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan **4,4** martaga koʻp bajarilgan boʻlib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2020- yilning mos davridagi koʼrsatkich darajasidan **10,8 %** punktga koʼpaygan.




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jamiga nisbatan ulushi, %da



Maʼlumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng koʻp ulushi Toyloq tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **50,8 %i**), Samarqand shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **25,2 %i** yoki 2020- yilning yanvar-mart olyariga nisbatan **113 %**), Pastdargʼom (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **6,0 %i**), Bulungʼur (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **5,2 %i**), Samarqand (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **5,1 %i**), Kattaqoʼrgʼon shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **4,9 %i**), Qoʼshrabot (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **2,4 %i**), Urgut (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **0,2 %i**), Payariq (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **0,1 %i**) va Ishtixon (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **0,1 %i**) tumanlarga toʼgʼri keldi.



Qurilish ishlari umumiy hajmida kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi, %da



Kichik korxona va mikrofirmalar

- 2021-yil yanvar-mart
- 2020-yil yanvar-mart

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2021- yil yanvar-mart oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan kamayganligi kuzatildi. Ular tomonidan jami qurilish ishlari hajmining **68,2 %** bajarilib, 2020- yilning yanvar-mart oylari ko'rsatkichiga nisbatan **4,5 %** punktga kamaygan.

Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2020- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati **108,5 %**ni tashkil etgan holda **886,2** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.


Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlaridagi ulushi **17,2 %**ni tashkil etib, **223,2** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2020- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan kamayish kuzatilib, **80,1 %**ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari umumiy hajmida norasmiy sektoring ulushi

ulushi %da

mldr. so‘m




■ 2020-yil yanvar-mart ■ 2021-yil yanvar-mart ■ 2020-yil yanvar-mart ■ 2021-yil yanvar-mart

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **57,8** mldr. so‘mlik qurilish ishlari bajarilgan bo‘lib, o‘sish sur’ati 2020- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan **135,5** %ni va jami amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi **4,5** %ni tashkil etdi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **1241,2** mldr. so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, o‘sish sur’ati **113,7** %ni va jami amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmidagi ulushi **95,5** %ni tashkil etdi.



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo‘lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, %da

2021-yil
yanvar-mart



Davlat mulki



Nodavlat mulk

2021-yil
Yanvar-mart

Samarqand viloyatida qurilish ishlari



Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi

2021- yil yanvar-mart

69,9 %

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurish bo'yicha bajarilgan. Jami qurilish ishlarining **69,9 %** yoki **907,8 mlrd. so'mni** tashkil etgan.

19,6

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **177,6 mlrd. so'mlik** ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **19,6 %**ni tashkil etdi.

56,2 %

Kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **510,1 mlrd. so'm** yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **56,2 %**ni tashkil etdi.

24,2 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasiga **220,1 mlrd. so'm** yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **24,2 %**ni tashkil etdi.



**Hududlar kesimida qurilish ishlari
2021- yil yanvar-mart oylarida**

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so‘m)	O‘sish sur’ati, %da	Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari (mlrd. so‘m)
Samarqand viloyati	1 299,1	114,5	907,8
Samarqand sh.	451,7	107,3	330,0
Kattaqo‘rg‘on sh. tumanlar:	27,5	175,6	19,9
Oqdaryo	90,3	101,8	77,3
Bulung‘ur	26,6	121,5	22,1
Jomboy	52,5	100,8	45,7
Ishtixon	54,0	101,2	46,1
Kattaqo‘rg‘on	31,7	102,6	29,0
Qo‘shrabot	30,8	124,5	22,5
Narpay	32,0	101,5	28,6
Payariq	95,4	117,7	63,0
Pastdarg‘om	85,0	112,3	42,8
Paxtachi	33,6	103,4	21,8
Samarqand	70,5	112,8	41,3
Nurobod	15,5	157,0	10,8
Urgut	73,9	100,7	51,3
Toyloq	128,1	216,6	55,6

*Hududlar bo‘yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo‘shtigan holda



Samarqand viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari, %da

2020- yil yanvar-mart

8,2




Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

17,2



Fuqarolik obyektlarini
qurilishi

74,6



Bino va inshootlarni
qurilishi

2021- yil yanvar-mart

3,0



Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

54,1



Fuqarolik obyektlarini
qurilishi

42,9



Bino va inshootlarni
qurilishi

Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.




Bino va inshootlar qurilishi

ulushi %da

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **20,1** %ni tashkil etib, 2020-yilning yanvar-mart oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **4,8** % punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2020-yilning yanvar-mart oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **0,4** % punktga ko'payib, **51,3** %ni tashkil etdi.

Norasmiy sektoring ulushi esa 2020-yilning yanvar-mart oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **4,4** % punktga ko'payib, **28,6** %ni tashkil etdi.



2021-yil
Yanvar-mart

Samarqand viloyatida qurilish ishlari




Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

ulushi % da

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **31,1** %ni tashkil etdi va 2020- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan **4,7** % punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **68,7** % (**4,6** % punktga ko'paydi) hamda norasmiy sektorning ulushi **0,2** %ni (**0,1** % punktga ko'paydi) tashkil etdi.



2021- yil
Yanvar-mart


Samarqand viloyatida qurilish ishlari



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

ulushi %da

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **13,6 %**ni tashkil etdi va 2020- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan **0,9 %** punktga ko'paydi. **86,4 %** ulush (**0,9 %** punktga kamaygan) kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri keldi.



2021- yil
Yanvar-mart

Samarqand viloyatida qurilish ishlari



Hududlar kesimida qurilish ishlari 2021- yil yanvar-mart oylarida

Eng yuqori hajm

(mlrd. so'm)

Samarqand sh.
451,7

1

2

Toyloq
128,1

Payariq
95,4

3



Eng kichik hajm

(mlrd. so'm)

Nurobod
15,5

1

2

Bulung'ur
26,6

Kattaqo'rg'on sh.
27,5

3



SAMARQAND VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



**Samarqand viloyati
Statistika boshqarmasi**

**Investitsiya va qurilish statistikasi
bo'limi**

Aloqa telefoni: (66) 230-45-32

**2021-yil
Yanvar-mart**

Samarqand viloyatida qurilish ishlari